

"AVO bank" aksiyadorlik jamiyatida kredit shartnomalari bo'yicha qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish tartibi to'g'risida Nizom

**Boshqaruv kengashining
2026-yil 29-yanvardagi
3/26-son bayonnomasi bilan
TASDIQLANGAN**

Umumiy qoidalar

1. Ushbu "AVO bank" AJda kredit shartnomalari bo'yicha qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish tartibi to'g'risidagi nizom (bundan buyon Nizom deb yuritiladi) moliyaviy qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan va fors-major holatlari tufayli qarz oluvchilarning kredit shartnomalarini restrukturizatsiya to'g'risidagi arizalarini ko'rib chiqish tartibini belgilaydi.
2. Nizom quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan:
 - 2.1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi 580-sonli Qonuni;
 - 2.2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018-yil 2-iyuldagi "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklari faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi 3030-sonli qarori;
 - 2.3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2025-yil 22-apreldagi "Banklar tomonidan belgilanadigan makroprudensial me'yorlar va beriladigan kreditlar (mikrokreditlar) bo'yicha to'lovlarning eng yuqori qiymatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 3618-sonli qarori;
 - 2.4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 14-iyuldagi "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi 2696-sonli qarori;
 - 2.5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlari.
3. Yangi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan yoki amaldagilari o'zgartirilgan taqdirda, Nizom (unga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar) ularga zid bo'lmagan qismida o'z kuchini saqlab qoladi.
4. Nizomning amal qilishi Qarz oluvchilarning Kredit shartnomalari bo'yicha majburiyatlarini restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish va qarorlar qabul qilish tartib-qoidalariga nisbatan qo'llaniladi.

Atamalar va ta'riflar

ABT - Avtomatlashtirilgan bank tizimi.

Bank - "AVO bank" aksiyadorlik jamiyati.

Qarzdorlik - Qarz oluvchining Bank oldidagi qarzi bo'lib, u asosiy qarz, Kredit shartnomasiga muvofiq Kreditdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlar, shuningdek Kredit shartnomasi asosida hisoblangan penya va jarimalarni o'z ichiga oladi.

Qarz oluvchi - Bank bilan Kredit shartnomasi tuzgan mijoz.

Mijoz - Bank bilan Bosh shartnoma tuzgan va Raqamli identifikatsiyadan o'tgan jismoniy shaxs (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi). Bank Mijoz uchun xizmatlar ro'yxatini, ularni ko'rsatish tartibi va shartlarini, shu jumladan cheklovlarni mustaqil ravishda belgilaydi.

Kredit - Bank tomonidan Mijozga Kredit shartnomasi asosida to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari bilan beriladigan mikroqarz.

Kredit ta'tili - Qarz oluvchining Kredit shartnomasi bo'yicha asosiy qarz va foizlarni to'lash majburiyatlarini bajarishi to'xtatib turiladigan davr.

Kredit qo'mitasi - Restrukturizatsiya qilish masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan Bankning doimiy faoliyat yurituvchi hay'at organi.

Kredit shartnomasi - Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan hamda Qarz oluvchi qarzni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizani topshirgan paytda amal qilayotgan mikroqarz shartnomasi. Bu shartnoma o'z ichiga tegishli Ariza, Taklif, Tarif rejasi, Kredit/mikroqarzning umumiy shartlari, Kredit/mikroqarzning individual shartlarini oladi va Bosh shartnomaga ilova yoki uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Restrukturizatsiya - Bank tomonidan Qarz oluvchi bilan Kredit shartnomasi shartlarini Qarz oluvchi foydasiga yaxshilaydigan va avvalgi Kredit shartnomasi shartlarini o'zgartiruvchi kelishuv tuzish. Bu kelishuv Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati va/yoki tartibini, shuningdek Kredit shartnomasi bo'yicha foiz stavkasini hisoblash tartibi va miqdorini o'zgartirishi mumkin.

Moliyaviy qiyinchiliklar - Daromadning kamayishi, daromad manbaining yo'qolishi yoki Qarz oluvchining to'lov qobiliyatining vaqtinchalik yomonlashuviga olib keladigan va Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarishni qiyinlashtiradigan boshqa omillar bilan bog'liq vaziyatlar.

Umumiy shartlar

5. Bank tomonidan Kredit shartnomalari bo'yicha restrukturizatsiya qilish Qarz oluvchida jiddiy moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyat yoki fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda amalga oshiriladi.
6. Kredit shartnomalari bo'yicha restrukturizatsiya qilish maqsadida jiddiy moliyaviy qiyinchiliklar mavjudligini tasdiqlash uchun Qarz oluvchi, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan va Kredit qo'mitasi majlisi qarori bilan tasdiqlanmagan bo'lsa, Bankka tegishli hujjatlarni taqdim etishi shart.
7. Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan va Kredit qo'mitasi majlisining qarori bilan tasdiqlanmagan bo'lsa, kredit shartnomalari bo'yicha restrukturizatsiya qilish Bank oldida kredit shartnomalari bo'yicha muddati o'tgan qarzi bo'lmagan Qarz oluvchilarga nisbatan yo'l qo'yiladi.

Kredit shartnomalarini restrukturizatsiya qilish turlari

8. Bank tomonidan qarzni restrukturizatsiya qilishning quyidagi turlari qo'llanilishi mumkin:
 - 8.1. Kreditni qaytarish muddatini uzaytirish;
 - 8.2. To'lovlar jadvalini o'zgartirish (jadvalni qayta hisoblash, alohida to'lovlarni kechiktirish, Kredit ta'tillarini joriy etish);
 - 8.3. Foiz stavkasini kamaytirish;
 - 8.4. Hisoblangan jarimalar, penya va vositachilik haqlarini bekor qilish yoki qaytarish.

Restrukturizatsiya uchun asoslar ro'yxati

9. Restrukturizatsiya uchun quyidagilar asos bo'ladi:
 - 9.1. Qarz oluvchining ikki oydan ortiq muddatga vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotishi;
 - 9.2. Qarz oluvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasining bekor qilinishi va uning tuman (shahar) kambag'allikka qarshi kurashish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida ish qidiruvchi sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi;
 - 9.3. Birgalikda qarz oluvchi va/yoki kafil bo'lgan Qarz oluvchining turmush o'rtog'i vafot etishi;
 - 9.4. Qarz oluvchi tomonidan I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarni farzandlikka olish yoki uning vasiyligidagi I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar sonining ko'payishi;
 - 9.5. Qarz oluvchining I yoki II guruh nogironlik maqomini olishi;
 - 9.6. Tabiiy ofatlar va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi;
 - 9.7. Homiladorlik va tug'ish ta'tili.
10. Nizomning 9-bandida ko'rsatilgan asoslar, agar bunday holatlar Qarz oluvchi Bankka restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan sanadan oldingi to'rt oy ichida yuz bergan (paydo bo'lgan yoki davom etgan) bo'lsa, Bank tomonidan e'tirof etiladi.
11. Nizomning 9.1 va 9.2-bandlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, Qarz oluvchi to'lov muddatlarini kechiktirish yoki uzaytirish to'g'risidagi ariza bilan Bankka murojaat qilganda, Qarz oluvchining murojaat qilish sanasidan oldingi ikki oydagi o'rtacha oylik daromadi oxirgi o'n ikki oydagi o'rtacha oylik daromadiga nisbatan kamida 30 foizga kamaygan bo'lishi lozim.
12. Nizomning 9-bandidagi 9.1-9.6-kichik bandlarda ko'rsatilgan hollarda, Kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlar 6 oydan oshmaydigan muddatga, 9.7-bandda ko'rsatilgan holatda esa 10 oydan oshmaydigan muddatga kechiktirilishi yoki uzaytirilishi mumkin. Bunda Kreditning tasnifi o'zgartirilmaydi va u qayta ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan aktiv sifatida tan olinmaydi.

Qarz oluvchilarning arizalarini qabul qilish tartibi

13. Kredit shartnomalari bo'yicha qarzдорlikni restrukturizatsiya qilish masalasini ko'rib chiqish Bank tomonidan Qarz oluvchining tegishli arizasi asosida amalga oshiriladi (1-ilova).
14. Restrukturizatsiya qilishni so'rab beriladigan ariza (zarur tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda) Qarz oluvchi tomonidan quyidagi usullardan biri orqali topshirilishi mumkin:
 - 14.1. topshirilganligi to'g'risidagi bildirishnoma bilan tasdiqlangan buyurtma pochta jo'natmasi orqali;
 - 14.2. arizani Bankning rasmiy elektron pochta manziliga (help@avo.uz) yuborish orqali;
 - 14.3. Bank veb-sayti orqali.
15. Restrukturizatsiya qilishni so'rab berilgan arizalar (yozma yoki elektron) tegishli ariza kelib tushgan kundan keyingi bir ish kunidan kechiktirmasdan Bankning elektron hujjat aylanish tizimida ro'yxatga olinishi shart.

16. Arizaga davlat organlari yoki vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi lozim. Hujjatlarning taxminiy ro'yxati Nizomning 2-ilovasida keltirilgan. Bank arizada bayon etilgan holatlarni inobatga olgan holda Qarz oluvchidan qo'shimcha hujjatlarni, shu jumladan Nizomning 2-ilovasida ko'rsatilmagan hujjatlarni ham taqdim etishni talab qilishga haqli.
17. Hujjatlarning haqiqiylikini tekshirish tartibi:
 - 17.1. Moliyaviy qiyinchiliklar, og'ir hayotiy vaziyat yoki fors-major holatlarini tasdiqlash uchun Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlar ularning haqiqiylik, ishonchlilik, dolzarbligi va ko'rsatilgan holatlarga aloqadorligi bo'yicha Bank tomonidan tekshirilishi shart.
 - 17.2. Hujjatlarni tekshirish Bankning vakolatli bo'linmalari tomonidan Qarz oluvchining murojaatini ko'rib chiqish doirasida quyidagilardan foydalangan holda amalga oshiriladi:
 - 1) Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlar;
 - 2) ABT va Bankning boshqa ichki axborot tizimlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar;
 - 3) davlat axborot resurslari, kredit byurolari, rasmiy ochiq manbalar, shuningdek, boshqa qonuniy axborot manbalaridan olingan ma'lumotlar.
 - 17.3. Taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligini tekshirish maqsadida Bank quyidagi huquqlarga ega:
 - 1) hujjatlarning asl nusxalari yoki notarial tasdiqlangan nusxalarini so'rash;
 - 2) hujjatlarni vizual va mantiqiy-rasmiy tekshiruvdan o'tkazish;
 - 3) taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarni Bankda mavjud ma'lumotlar bilan solishtirish;
 - 4) Qarz oluvchiga qo'shimcha hujjatlar va/yoki tushuntirishlar taqdim etish bo'yicha so'rovnomalar yuborish;
 - 5) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa tekshirish usullaridan foydalanish.
 - 17.4. Taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsizlik, soxtalik, bayon etilgan holatlarga nomuvofiqlik belgilari aniqlansa yoki ularning haqiqiylikini tasdiqlash imkoni bo'lmasa, Bank quyidagi huquqlarga ega:
 - 1) aniqlangan kamchiliklarni ko'rsatgan holda hujjatlarni Qarz oluvchiga qaytarish;
 - 2) aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar Qarz oluvchining murojaatini ko'rib chiqishni to'xtatib turish;
 - 3) Restrukturizatsiya bo'yicha qaror qabul qilishda mazkur holatlarni inobatga olish.
 - 17.5. Bank Kredit shartnomalarini Restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish va/yoki Qarz oluvchining moliyaviy holatini baholash jarayonida Qarz oluvchidan qo'shimcha hujjatlar taqdim etishni va/yoki taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha tushuntirishlar berishni so'rash huquqiga ega.
18. Bank quyidagi hollarda arizani ko'rib chiqishni rad etishi mumkin:
 - 18.1. anonim ariza yoki Qarz oluvchini aniqlash imkoni bo'lmagan ariza topshirilganda;
 - 18.2. Restrukturizatsiya uchun asos Nizomning 9-bandiga mos kelmasa;
 - 18.3. Restrukturizatsiya uchun asoslar hujjatlar bilan tasdiqlanmagan bo'lsa;
 - 18.4. avval asosli rad etilgan asoslar bo'yicha takroran ariza berilganda.
19. Agar Qarz oluvchi so'ralgan tushuntirishlar va/yoki arizani mazmunan ko'rib chiqish uchun zarur va yetarli hujjatlarni taqdim etmagan bo'lsa, Bank arizani ko'rib chiqish uchun belgilangan muddatlar ichida arizani ko'rib chiqishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir.

20. Qarz oluvchi taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning ishonchligi uchun javobgardir. Bank tomonidan Restrukturizatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilishga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan noto'g'ri, soxta va yashirin ma'lumotlarning aniqlanishi arizani ko'rib chiqishni rad etish uchun asos bo'ladi. Kredit shartnomasini restrukturizatsiya qilish uchun hujjatlar to'plamini tayyorlash bo'yicha barcha xarajatlar (zarur hollarda) Qarz oluvchi zimmasiga yuklanadi.

Arizalarni ko'rib chiqish va qarorlar qabul qilish tartibi

21. Barcha arizalar Bankka kelib tushgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kuni ichida Bank tomonidan ko'rib chiqiladi. Qo'shimcha o'rganish va/yoki tekshirish, qo'shimcha hujjatlar va/yoki tushuntirishlar talab qilingan hollarda, arizani ko'rib chiqish muddati uzaytirilishi mumkin, biroq u Bankka kelib tushgan kundan boshlab bir oydan oshmasligi lozim.
22. Arizalarni ko'rib chiqish va restrukturizatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish Kredit qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.
23. Kredit qo'mitasi har bir ariza bo'yicha quyidagi baholash mezonlari asosida alohida qaror qabul qiladi:
- 23.1. Nizomning 9-bandida ko'rsatilgan restrukturizatsiya qilish uchun asoslarning mavjudligi;
 - 23.2. Restrukturizatsiya uchun asoslarning hujjatli tasdiqlanishi mavjudligi va to'liqligi;
 - 23.3. Qarz oluvchining moliyaviy holati va to'lov qobiliyati tahlili;
 - 23.4. Qarz oluvchining restrukturizatsiya qilish uchun asoslar yuzaga kelgunga qadar bo'lgan davrda Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish holati;
 - 23.5. Restrukturizatsiya qilish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda Qarz oluvchining Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarmasligi ehtimoli;
 - 23.6. Restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi qarorning aktivlar tasnifi va zaxiralarga ta'siri.
24. Kredit qo'mitasi quyidagi hollarda restrukturizatsiya qilishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin:
- 24.1. Qarz oluvchi tomonidan restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizani mazmunan ko'rib chiqish uchun zarur va yetarli bo'lgan so'ralgan tushuntirishlar va/yoki hujjatlar taqdim etilmaganda;
 - 24.2. Qarz oluvchi tomonidan restrukturizatsiya qilish imkoniyati to'g'risida qaror qabul qilishga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan ishonchsiz, yolg'on ma'lumotlar taqdim etilganda va/yoki ma'lumotlar yashirilganda;
 - 24.3. Qarz oluvchining Bank oldidagi kredit shartnomalari bo'yicha joriy muddati o'tgan qarzdorligi, shu jumladan asosiy qarz, foizlar, jarimalar va penya mavjud bo'lganda;
 - 24.4. Tegishli Kredit shartnomasi bo'yicha Bank tomonidan ilgari restrukturizatsiya amalga oshirilgan bo'lsa;
 - 24.5. Restrukturizatsiya taqdim etilgan taqdirda ham Qarz oluvchi tomonidan Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi ehtimoli yuqori bo'lganda.
25. Restrukturizatsiya qilish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, Restrukturizatsiya turi va usuli arizani baholash va Qarz oluvchi bilan muzokaralar natijalariga ko'ra belgilanadi. Bank tomonidan restrukturizatsiyani taqdim etish bo'yicha ijobiy yoki salbiy qaror qabul qilinganda,

Qarz oluvchiga tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida yozma yoki elektron shaklda xabar beriladi.

Restrukturizatsiya doirasida Kredit shartnomasi shartlaridagi o'zgarishlarni rasmiylashtirish

26. Kredit shartnomasi bo'yicha restrukturizatsiya qilish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, Kredit shartnomasining yangi shartlari qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi, unda quyidagilar ko'rsatiladi:
 - 26.1. o'zgartirilgan to'lov muddatlari va/yoki jadvali;
 - 26.2. foizlarni hisoblash shartlari;
 - 26.3. jarima va penyalarni to'lash tartibi (agar o'zgarsa);
 - 26.4. Kredit shartnomasining o'zgartiriladigan boshqa shartlari;
 - 26.5. o'zgartirishlar kuchga kiradigan sana.
27. Qarz oluvchi o'zgartirishlar kuchga kiradigan sanagacha qo'shimcha kelishuv shartlari bilan tanishib chiqishi va ularni imzolash yoki Bankning mobil ilovasida qo'shimcha kelishuvni qabul qilish orqali roziligini bildirishi shart.
28. Qarz oluvchining restrukturizatsiya shartlaridan voz kechishi, shuningdek Bank tomonidan qo'shimcha kelishuv yuborilgan sanadan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida imzolangan qo'shimcha kelishuvni taqdim etmasligi, ko'rsatilgan qarorning bekor qilinishiga olib keladi va Qarz oluvchining Kredit shartnomasi bo'yicha restrukturizatsiyadan ixtiyoriy ravishda voz kechgani hisoblanadi.

Javobgarlik

29. Nizomda belgilangan muddatlar va tartiblarni buzgan Bank xodimlari Bankning ichki me'yoriy hujjatlari va mehnat qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Yakuniy qoidalar

30. Ushbu Nizom Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.
31. Nizomda tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida hal etiladi.

Boshqaruv raisi

_____/ Dmitriy Musiyenko /

Boshqaruv a'zosi

_____/Igor Kim/

Boshqaruv a'zosi

_____/Rashid Laxlu/

Boshqaruv a'zosi

_____/Ondrey Grix/

1-ilova

Qarz oluvchining Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish (Restrukturizatsiya) to'g'risidagi arizasi

(Blanka)

1. F.I.Sh.: _____
2. JSHSIR: _____
3. Pasport (shaxsni tasdiqlovchi hujjat): seriyasi _____ № _____ 20__ yil " _____ " da berilgan
4. Ro'yxatdan o'tgan manzil/haqiqiy yashash manzili: _____
5. Aloqa telefoni: _____ E-mail: _____
6. Kredit shartnomasi raqami / sanasi: _____
7. Quyidagi o'zgartirishlarni kiritish to'g'risidagi arizamni ko'rib chiqishingizni so'rayman (kerakli o'zgartirishlarni ko'rsating):
 - kredit muddatini uzaytirish (_____ oyga);
 - to'lovlarni _____ oyga kechiktirish imkoniyatini berish;
 - foiz stavkasini _____% ga o'zgartirish;
 - _____ miqdoridagi jarimalar/penyalarni bekor qilish/qaytarish;
 - boshqa (ko'rsating): _____
8. Asosning qisqacha tavsifi:

9. Ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati: (belgilang)
 - ☐ pasport/ID nusxasi
 - ☐ kredit shartnomasi nusxasi ☐ ishdan bo'shatilganlik to'g'risidagi tasdiqnoma ☐ tibbiy hujjatlar
 - ☐ bola tug'ilganlik guvohnomasi
 - ☐ boshqa: _____
10. Ariza yozilgan sana: 20____ yil " _____ " _____
11. Imzo: _____

(Eslatma: ariza qog'oz shaklida yoki Bankning ichki qoidalariga muvofiq elektron imzo vositalaridan foydalangan holda elektron shaklda topshirilishi mumkin.)

2-ilova

Kredit shartnomalarini Restrukturizatsiya qilish masalasini ko'rib chiqish uchun zarur hujjatlar ro'yxati

Restrukturizatsiya uchun asoslar		Taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar
1	Qarz oluvchining ikki oydan ortiq muddatga vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotishi;	vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotish holatida mehnatga layoqatsizlik varaqasi (kasallik varaqasi) nusxasi;
2	Qarz oluvchining mehnat shartnomasi bekor qilinishi va uni tuman (shahar) kambag'allikka qarshi kurashish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida ish qidiruvchi sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi;	- ish beruvchining xodimni ishdan bo'shatish, ish o'rnini qisqartirish yoki korxona faoliyatini to'xtatish to'g'risidagi buyrug'i (farmoyishi); - Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish organlaridan Qarz oluvchining ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma; - so'nggi 12 oy uchun ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotnoma; - so'nggi 12 oy davomida ish haqi hisobvarag'i/kartasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risidagi ko'chirma; - tadbirkorlik faoliyatini vaqtincha to'xtatish to'g'risidagi ma'lumotnoma (o'zini o'zi band qilganlar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun); - soliq organlariga aylanma hajmining kamayishi yoki YaTTning yopilishi haqida xabarnoma; - moliyaviy ahvolning yomonlashuviga olib kelgan boshqa hujjatlar.
3	Birgalikda qarz oluvchi oluvchi va/yoki kafil bo'lgan Qarz oluvchining turmush o'rtog'i vafot etganda;	Birgalikda qarz oluvchi bo'lgan Qarz oluvchining turmush o'rtog'i vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma.
4	Qarz oluvchi tomonidan I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarni farzandlikka olish yoki uning vasiyligidagi I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar sonining ko'payishi;	I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarni qaramog'iga olganligini yoki Qarz oluvchining qaramog'idagi I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar soni ko'payganligini tasdiqlovchi hujjatlar.
5	Qarz oluvchiga I yoki II guruh nogironligi berilishi;	I yoki II guruh nogironligi berilganligi to'g'risidagi tibbiy xulosa (ma'lumotnoma, ko'chirma).
6	Tabiiy ofatlar va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi;	Favqulodda vaziyatlar vazirligi, ichki ishlar organlari, mahalla yoki boshqa vakolatli organning favqulodda vaziyat, yong'in, suv toshqini va shu kabilar sodir bo'lganligi to'g'risidagi dalolatnomasi;

		• sug'urta kompaniyasining sug'urta hodisasi yuz berganligini tan olish va sug'urta tovonini to'lash (yoki to'lashni rad etish) to'g'risidagi hujjatlari; • mol-mulkning yo'qolganligi yoki shikastlanganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.
7	Qarz oluvchining homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqishi.	• homiladorlik va tug'ish bo'yicha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (kasallik varaqasi) nusxasi; • bolani parvarishlash ta'tili berilganligini tasdiqlovchi ish joyidan ma'lumotnoma (yoki buyruq); • bolaning tug'ilganlik guvohnomasi (tug'ruqdan so'ng ariza topshirilgan holda); • ish beruvchi tomonidan berilgan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma.